

TALABAGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM

Baxshilloyeva Sabrinabonu Azamat qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti ingliz tili II fakulteti maktabgacha va boshlang'ich ta'linda xorijiy til: ingliz tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Pardayeva Aziza

Annotatsiya. Maqolada ta'limning zamonaviy usullaridan biri hisoblangan talabaga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati, xususiyatlari va natijaviy yutuqlari haqida so'z boradi. Yuqoridagi usulni qo'llashda texnologiyaga asoslangan ta'lim metod va texnikalaridan foydalanishning samaradorligi yuqori darajada. Zamonaviy texnologiyalar orqali dars jarayonini olib borish o'rganuvchi uchun ham, pedagog uchun ham qulay va osondir.

Kalit so'zlar: kompetensiya, talabaga qaratilgan ta'lim, texnologiya, tadqiqot, talaba, loyiha, ta'lim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - o'qitish jarayonining asosiy jihatlari talabaga qaratilgan, uning qiziqishlari, muhim o'ringa qo'yiladigan, asosiy e'tibor o'rganuvchini har jihatdan rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat. Bunday ta'lim berish diqqat markazining talabaga yo'naltirilgani bilan ahamiyatli bo'lib, bu usul zamonaviy ta'lim turlaridan hisoblanadi. An'anaviy metodlarda shaxs qiziqishi, e'tiborga olinmagan holda uning mustaqilligi ham cheklanadi va o'qitish majburiy tarzda olib boriladi. Buning natijasida o'rganuvchida zerikish, loqaydlik, dangasalik kabi holatlar kuzatiladi. An'anaviy usuldan farqli o'laroq ta'limning talabaga qaratilgan turida shaxs rivojlanishi ko'zda tutiladi, talaba o'zi qiziqqan yo'nalish bo'yicha faoliyat olib boradi, uning mustaqilligi har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi, oqibatda ta'lim oluvchi o'z ustida ko'proq ishlaydi, ta'lim samaradorligi yanada oshib boradi. Shuningdek, bu ta'lim turi shaxsda muammoni mustaqil tarzda hal qilish, tanqidiy tahlil qilish, fikrlash, ijodkorlik, javobgarlik, tashabbuskorlik, erkin fikr yuritish, mas'uliyat va boshqa bir qancha qobiliyatlarni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shakllantiradi. Ta'limning bunday usulda olib borilishi talabaga o'z ehtiyoj va qiziqishidan kelib chiqib tanlov imkoniyatini taqdim qiladi.[1]

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi malakali, raqobatbardosh, moslashuvchan, malakali mutaxassis tayyorlash ekan bunda yuqoridagi ta'lim turi juda ahamiyatli sanaladi.

Ta'limning bunday uslubi odatda oliy ta'lim tizimida olib boriladi, talaba o'z ustida izlanadi, tadqiqot olib boradi. Pedagog esa uning faoliyatini nazorat qilib boradi, to'g'ri yo'l ko'rsatgan holda o'z maslahatlarini, tadqiqotchi yo'l qo'yayotgan xato - kamchiliklarni tushuntiradi, rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Talabaga yo'naltirilgan o'qitish tizimida texnologiya asosiy amaliyotlarni qo'llab-quvvatlaydi. Zamonaviy ta'limning asosini ham texnologiya tashkil etadi, masofadan online va virtual o'qitish bunga yaqqol misol bo'la oladi. Texnologiyalardan qiziqtirgan yo'nalish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalar o'zлari qiziqqan sohaga mos o'quv artefaktlarini yaratadilar. Tajribalar o'z navbatida ta'lim sarguzashtlarini yaratishga imkon beradi. O'qituvchi bilan birgalikda o'quv kompetensiyalari ko'rinishini loyihalashda ishlaydilar. So'z yuritilayotgan ta'lim shakli natijasida talabalar ma'lum soha bo'yicha o'z yo'llarini topadilar. Bu jarayonda o'rganuvchi g'oyalari, izlanishlari yuqori baholanadi. Har bir talaba o'zi qiziqqan ma'lum loyiha bo'yicha izlanar ekan, u shu sohaning ko'lami, yutuq va kamchiliklari, imkoniyatlaridan xabardor bo'lib boradi. Buning esa tadqiqot olib borilayotgan fan uchun ham, jamiyat uchun ham ijobjiy tomonlari yetarlicha.

Izlanuvchi jamiyatga asoslangan, real dunyo muammolari bilan bog'liq loyihalar ustida ishlar ekan uning dunyoqarashi, tafakkur doirasi, qarashlari o'sib takomillashib boradi. Oqibatda, jamiyatda o'z mustaqil fikri va qarashlariga ega, malakali, bilimdon, tashabbuskor, faol, mas'uliyatli, yetuk kadrlar yetishib chiqadi.

Bu uslub talabaga o'z iqtidorini to'laqonli namoyon etishga, o'z imkoniyatlari darajasini aniqlashga, qanday ishlarga qodir ekanini bilib olishga, o'zini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xulosa qilib aytganda, talabaga yo'nalgan ta'lim zamonaviy o'quv usullaridan bo'lib o'rganuvchi shaxsini markazga qo'yadi hamda uning qiziqishlari, faoliyati, intilishlari, maqsad va rejalarini qo'llab-quvvatlagan holda erkin tadqiqot olib borishiga imkoniyat, shart-sharoit yaratadi. Bunda o'z navbatida pedagogning o'rni ahamiyatli bo'lishiga qaramay asosiy e'tibor o'rganuvchi faoliyatiga qaratiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Xidirbayev Sherali Yeraliyevich "talaba shaxsiga yo'naltiriligan va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar".
2. <http://en.m.wikipedia.org>
3. <https://michiganvirtual.org>
4. <https://www.dprep.ac.th>